



## SIRKULAR IQTISODIYOTNING KOMBINATSIYALASHGAN PAKETLAR MEXANIZMI VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

*i.f.n., dots. Sodikov Zokir*

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*

*ORCID: 0000-0002-0195-4573*

*[z.sodiqov@iiua.uz](mailto:z.sodiqov@iiua.uz)*

**Annotatsiya.** Maqolada sirkulyar iqtisodiyotning kombinatsiyalashgan paketlar mexanizmi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, iqtisodiy, ekologik va institutsional instrumentlarning yagona tizim sifatida uyg'unlashuvi orqali resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash jarayonlarini optimallashtirish masalalari o'rganiladi. Tadqiqotda moliyaviy rag'batlar, soliq mexanizmlari, kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyati (EPR), yashil investitsiyalar va davlat siyosatining integratsiyalashgan ta'siri tahlil qilinadi. Natijada kombinatsiyalashgan yondashuvning ustunliklari va uni milliy iqtisodiyotda qo'llash imkoniyatlari asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** sirkulyar iqtisodiyot, kombinatsiyalashgan mexanizm, ekologik siyosat, chiqindilarni boshqarish, EPR, yashil iqtisodiyot, resurs samaradorligi, ichkilashtirish.

## МЕХАНИЗМ КОМПЛЕКСНОГО ИНСТРУМЕНТАЛЬНОГО ПОДХОДА (POLICY MIX) В ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЕГО СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

*к.э.н., доц. Содиков Зокир*

*Международная исламская академия Узбекистана*

**Аннотация.** В данной статье анализируется механизм комбинированных пакетов в циркулярной экономике с теоретической и практической точек зрения. Особое внимание уделяется интеграции экономических, экологических и институциональных инструментов в единую систему для повышения эффективности использования ресурсов, сокращения отходов и оптимизации процессов переработки. Рассматривается влияние финансовых стимулов, налоговых механизмов, расширенной ответственности производителей (EPR), «зеленых» инвестиций и государственной политики. Обоснованы преимущества интегрированного подхода и его применение в национальной экономике.

**Ключевые слова:** циркулярная экономика, интегрированные механизмы, экологическая политика, управление отходами, РОП (EPR), зеленая экономика, ресурсная эффективность, интернализация.

## THE MECHANISM OF POLICY MIX IN THE CIRCULAR ECONOMY AND ITS SPECIFIC CHARACTERISTICS

PhD, assoc. prof. **Sodikov Zokir**  
International Islamic Academy of Uzbekistan

**Abstract.** *This article examines the integrated package mechanisms of the circular economy from both theoretical and practical perspectives. It focuses on the coordination of economic, environmental, and institutional instruments as a unified system to enhance resource efficiency, reduce waste, and optimize recycling processes. The study analyzes the combined effects of financial incentives, tax instruments, Extended Producer Responsibility (EPR), green investments, and public policy. The findings highlight the advantages of integrated approaches and justify their applicability in national economic systems.*

**Keywords:** *circular economy, integrated mechanisms, environmental policy, waste management, EPR, green economy, resource efficiency, internalization.*

### **Kirish.**

Bugungi kunda global iqtisodiyotda resurslar tanqisligi, ekologik degradatsiya va iqlim o'zgarishi muammolari keskinlashib bormoqda. An'anaviy chiziqli iqtisodiy model (take-make-dispose) bu muammolarni hal etishda samarasiz bo'lib qolmoqda. Shu sababli sirkulyar iqtisodiyot modeli muqobil yechim sifatida shakllanmoqda. Ayniqsa, kombinatsiyalashgan paketlar mexanizmi turli iqtisodiy instrumentlarni yagona tizimda qo'llash orqali yuqori samaradorlikni ta'minlash imkonini beradi.

Sirkulyar iqtisodiyotda kombinatsiyalashgan paketlar mexanizmining nazariy asoslarini ishlab chiqish va uning samaradorligini baholash asosiy maqsad hisoblanadi.

Ana shu maqsaddan kelib chiqib ushbu vazifalar belgilangan:

- Sirkulyar iqtisodiyot tushunchasini chuqur tahlil qilish;
- Kombinatsiyalashgan paketlar mexanizmining mohiyatini ochib berish
- Kombinatsiyalashgan mexanizmlar tarkibini aniqlash;
- Kombinatsiyalashgan mexanizmlarni joriy etishda moliyaviy va institutsional instrumentlarning rolini asoslash;
- Milliy iqtisodiyot sharoitida kombinatsiyalashgan mexanizmlar qo'llash imkoniyatlarini asoslash kabilar.

Sirkulyar iqtisodiyotning kombinatsiyalashgan paketlar mexanizmi va uning resurslar aylanish jarayonlari tadqiqotning obyekti hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotda kombinatsiyalashgan paketlar mexanizmini joriy etishning iqtisodiy, ekologik va institutsional jihatlari bilan bog'liq munosabatlar tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, taqqoslash usuli, analiz va sintez, statistik tahlil, institutsional yondashuv metodlari qo'llaniladi. Mazkur tadqiqotda kompleks (integratsiyalashgan) metodologik yondashuv ustuvor bo'lib, unda sirkulyar iqtisodiyot mexanizmi alohida instrumentlar sifatida emas, balki, kombinatsiyalashgan paketlar sifatida o'rganiladi. Sirkulyar iqtisodiyotning kombinatsiyalashgan paketlar mexanizmining o'ziga xos jihatlari borasidagi tadqiqotning ilmiy ahamiyati – bu, sirkulyar iqtisodiyot nazariyasini boyitishda va yangi kombinatsiyalashgan model taklif etishda yuzaga chiqadi Sirkulyar iqtisodiyotning kombinatsiyalashgan paketlar mexanizmining o'ziga xos jihatlari borasidagi tadqiqotning amaliy ahamiyati – bu, davlat siyosatini shakllantirishda, ekologik boshqaruv samaradorligini oshirishda, investitsiya siyosatini optimallashtirishda namoyon bo'ladi.

### Adabiyotlar sharhi.

Sirkulyar iqtisodiyot so'nggi yillarda iqtisodiy fanlarda eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlardan biri bo'lib, u resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni minimallashtirish va yopiq siklli ishlab chiqarish tizimlarini shakllantirishga qaratilgan. Klassik sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasi Geissdoerfer va boshqalar (2017) tomonidan "resurslar oqimini yopiq siklga o'tkazish orqali iqtisodiy tizimni qayta tashkil etish modeli" sifatida talqin qilinadi. Unga ko'ra, chiqindilar resursga aylanadi, ishlab chiqarish va iste'mol o'zaro integratsiyalashadi. Tizimli yondashuv bo'yicha Kirchherr va boshqalar (2017) sirkulyar iqtisodiyotni faqat ekologik emas, balki, iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional tizimlarning uyg'unlashuvi sifatida talqin qiladi. Siyosiy-iqtisodiy yondashuv (policy mix) bo'yicha OECD va Yevropa Ittifoqi tadqiqotlarida kombinatsiyalashgan mexanizmlar o'ziga xos usullar orqali amalga oshiriladi. Xususan, bu borada soliq instrumentlari, subsidiyalar, normativ tartibga solish va bozor mexanizmlarini namuna sifatida keltirish mumkin. Bu yondashuv "policy mix" yoki kombinatsiyalashgan paketlar mexanizmi deb talqin qilinadi. Kombinatsiyalashgan mexanizm bo'yicha ilmiy qarashlarda alohida instrument sifatida emas, balki ularning integratsiyasi muhimligi qayd qilingan. Masalan, EPR- ishlab chiqaruvchi mas'uliyatini kengaytirish, Pigou soliqlari - tashqi zararlarni ichkilashtirish, Yashil investitsiyalar - innovatsiyalarni rag'batlantirish, Subsidiyalar - ekologik faoliyatni qo'llab-quvvatlashi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki: yakka holda alohida instrumentdan foydalanish emas, balki ularning bir nechtasini kombinatsiyalashgan holda qo'llash maksimal samaradorlikka sabab bo'ladi.

Sirkulyar iqtisodiyotning kombinatsiyalashgan paketlar mexanizmi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Leonidas Milios (2018) Policy mix nazariyasining asoschisi bo'lib, u "Advancing to a Circular Economy: three essential ingredients for a comprehensive policy mix (Sirkulyar iqtisodiyotga o'tish: keng qamrovli siyosatning uchta asosiy tarkibiy qismi)" (2018) mavzusidagi tadqiqotida bu borada bayon qilingan. Uning asosiy g'oyasiga ko'ra sirkulyar iqtisodiyotga o'tishda yagona instrument yetarli emas, balki kompleks siyosat paketlari (policy mix) zarur bo'ladi. Buning natijalari sirkulyar iqtisodiyot uchun 3 asosiy komponent bo'lmish, bozorni rivojlanishi (secondary materials market), innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlanishi va normativ siyosat instrumentlari o'zaro bog'liq bo'lishi kerak. Demak, Leonidas Milios (2018) ko'ra kombinatsiyalashgan paketlar - sirkulyar iqtisodiyot transformatsiyasining markaziy mexanizmi hisoblanadi. Ayni paytda, Vasileios Rizos va Valeria Zambianchi (2016) Policy coherence (Siyosat izchilligi) yondashuvini tadqiq qilgan.

Tadqiqotda "EU circular economy policy mix analysis (Yning sirkulyar iqtisodiyot siyosati aralashmasi tahlili)" (2025) muhokama qilingan. Uning asosiy g'oyasiga binoan sirkulyar iqtisodiyot siyosati faqat ko'p instrumentli bo'lishi emas, balki o'zaro mos (coherent) bo'lishi ham kerak. Uning natijasi sifatida Yevropa Ittifoqida siyosatlar o'rtasida o'rta-yuqori darajada uyg'unlik mavjud, lekin ayrim sektorlar o'rtasida nomuvofiqlik kuzatiladi. Chunki, siyosatlar o'rtasida ziddiyat bo'lsa → samaradorlik pasayadi. Shu bois, "policy mix" sifati uning ichki uyg'unligiga tayanadi. Shuningdek, Patrizia Ghisellini, Catia Cialani va Sergio Ulgiati (2016) tomonidan tizimli sirkulyar iqtisodiyot modeli o'rganilgan. Uning tadqiqoti "A review on circular economy (sirkulyar iqtisodiyotga sharh)" mavzusida bo'lib, ularning asosiy g'oyasi sirkulyar iqtisodiyot - bu ishlab chiqarish, iste'mol va chiqindini boshqarish tizimlarini yagona yopiq siklga birlashtirishdan iborat.

Uning natijalari sirkulyar iqtisodiyot faqat chiqindilarni kamaytirish emas, balki iqtisodiy + ekologik tizimlar integratsiyasini ta'minlab beradi. Shu bois, bu kombinatsiyalashgan paketlar aynan shu tizimni boshqarish vositasi hisoblanadi. Martin Geissdoerfer, Paulo Savaget va Nancy Bocken (2016) tomonidan sirkulyar iqtisodiyotning yangi iqtisodiy paradigmasi o'rtaga tashlangan. Bu tadqiqotda "The circular economy - a new sustainability paradigm? (sirkulyar iqtisodiyot - yangi barqarorlik paradigmasi?)" (2017) muhokama qilingan. Ularning asosiy talqini sirkulyar iqtisodiyot - bu "yangi paradigma" bo'lib, resurslardan foydalanishni ajratadi (decoupling) va iqtisodiy o'sishni ekologik zarardan alohida qilib, ajratadi. Uning

natijalari o'laroq sirkulyar iqtisodiyot uchun biznes modellari bilan siyosat instrumentlari birgalikda ishlashi kerak. Shuning uchun kombinatsiyalashgan mexanizm – iqtisodiy o'sish va ekologiyani uyg'unlashtiradi.

Yong Geng, Joseph Sarkis, Sergio Ulgiati, Pan Zhang (2013) bu olimlar sirkulyar iqtisodiyot va industrial ecology yo'nalishida muhim bo'lgan nazariya asoschilari qatoriga kiradi. Ularning tadqiqoti Xitoy tajribasi bo'yicha sirkulyar iqtisodiyot indikatorlari borasida amalga oshirilgan bo'lib, ularning bu boradagi asosiy g'oyasi sirkulyar iqtisodiyot davlat siyosati orqali boshqarilishi kerakligiga qaratilgan. Natijalari esa sirkulyar iqtisodiyot rivojlanishi uchun sanoat siyosati, resurs siyosati va ekologik siyosatni integratsiya qilish kerak. Shuning uchun kombinatsiyalashgan paketlar – milliy darajadagi strategik boshqaruv vositasi hisoblanadi.

Lotz va boshqalar (2022) "Potentials and Prerequisites on the Way to a Circular Economy: A Value Chain Perspective on Batteries and Buildings (Sirkulyar iqtisodiyotga yo'ldagi potentsiallar va zaruriy shartlar: Batareyalar va binolarga qiymat zanjiri nuqtai nazari)" mavzusidagi tadqiqotda mualliflar qiymat zanjiri (value chain) yondashuvi bo'yicha Batareyalar va qurilish sektorida sirkulyar iqtisodiyot siyosati butun qiymat zanjirini qamrab olishi kerakligini asoslaydi. Natijalari ayrim sektorlar (masalan, batareyalar) yaxshi tartibga solingan bo'lsa, boshqalari esa moslashtirilmagan. Demak, umumiy siyosat bilan birga sektorga xos instrumentlar kombinatsiyasi zarur. Mazkur tadqiqotchilar, mavjud siyosatlar chiziqli qiymat zanjirini sirkulyar qiymat zanjiriga (linear value chain'ni circular value chain) aylantirishga nima uchun yetarli emasligini o'rganadi. Chunki, mavjud siyosatlar (masalan, Yevropa Ittifoqi, milliy va xalqaro qonun-qoidalar) chiziqli qiymat zanjirini (take-make-dispose — resurslarni olish, ishlab chiqarish va chiqindiga tashlash modeli) sirkulyar qiymat zanjiriga (reduce-reuse-recycle-regenerate — resurslarni tejash, qayta ishlatish, qayta ishlash va tabiatni tiklash modeli) to'liq aylantirishga yetarli emasligini har tomonlama va chuqur tadqiq qiladi. Buning asosiy sababi — siyosatlarning tizimli yetishmovchiligi bo'lib, ular qisman (masalan, qayta ishlashni rag'batlantirish kabi) yechimlarni tavsiya qilishi mumkin. Lekin butun qiymat zanjirini yetkazib beruvchilardan tortib iste'molchigacha tubdan o'zgartirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratmaydi. Uning asosiy sabablari tadqiqot qilgan mualliflarning umumiy xulosalariga ko'ra quyidagilardan iborat:

Siyosatlar tarqoq va yetarli darajada rag'batlantirmaydi. Ko'pincha siyosatlar faqat oxirgi bosqichga (chiqindilarni qayta ishlash) qaratilgan, lekin mahsulot dizayni, resurslardan foydalanishni kamaytirish yoki qayta ishlatish kabi chuqurroq o'zgarishlarni talab etmaydi. Natijada korxonalar tajriba o'tkazadi, ammo tizimli o'zgarish bo'lmaydi. Masalan, ko'plab siyosatlar "eko-dizayn" yoki "ikkinchi qo'l" platformalarini rag'batlantiradi, lekin bu eski chiziqli modelga qo'shimcha bo'lib qoladi.

Iqtisodiy va moliyaviy to'siqlar yetarli darajada bartaraf etilmaydi. Yangi (virgin) materiallar hali ham arzon (ekologik zararlarni hisobga olinmaydi), sirkulyar modellar esa yuqori boshlang'ich xarajat talab qiladi. Siyosatlar yetarli darajada subsidiya va soliq imtiyozlarini bermaydi yoki majburiy ravishda (masalan, qayta ishlatilgan material ulushini oshirishni) talab qilmaydi. Natijada biznesmenlar chiziqli modeldan chiqishni iqtisodiy jihatdan foydasiz deb biladi.

Standartlashtirishda, huquqiy va infratuzilmalarda muammolar mavjud. Qonun-qoidalar har xil mamlakatlarda bir-biridan farq qiladi, ya'ni, bir xil emas, mahsulot murakkabligi (masalan, ko'p qatlamli plastmassa) va teskari logistika (qaytarib olish tizimi) yetarli darajada rivojlanmagan. Sohaga oid infratuzilmalar hali ham ko'proq chiqindiga tashlashga mo'ljallangan, qayta ishlash zavodlari esa talab darajasida mavjud emas. Olib borilayotgan siyosatlar bu bo'shliqlarni to'ldira olmaydi.

Amaliy yo'riqnoma va tizimli yondashuv shakllanmagan. Mavzu doirasidagi adabiyotlar va siyosatlar asosan qayta ishlash yoki "mahsulot xizmat sifatida" modeliga ustuvorlik beradi. Lekin, chiziqli biznes modellarini butunlay sirkulyar klasterlarga (nol chiqindi zanjirlari)

aylantirish bo'yicha aniq yo'l xaritalari taklif qilinmagani uchun o'zgarishlar tajriba bosqichida qolib ketadi.

Shu bois, ushbu tadqiqotchilar sirkulyar iqtisodiyot faqat, chiqindilar bosqichida emas, balki butun qiymat zanjiri bo'ylab amalga oshirilishi kerak deydi. Agar, sirkulyar iqtisodiyotda faqat recycling (qayta ishlash) qilinsa, faqat ishlab chiqarish tartibga solinsa, bu yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun masalaga to'g'ri yondashuv uchun xomashyo → ishlab chiqarish → foydalanish → qayta ishlash → qayta ishlab chiqarish jarayonlarining hammasini kompleks qamrab olish kerak.

Mavjud siyosatlar "tajriba" va "qisman moslashish"ni rag'batlantiradi, lekin chiziqli modelning tub ildizlarini, xususan, arzon virgin materiallar (yangi, tabiiy manbadan olingan, hali ishlatilmagan va qayta ishlanmagan xom ashyo), hajmga asoslangan biznes, global zanjirlar parchalanganligini o'zgartirmaydi. Tadqiqotchilar, sirkulyar iqtisodiyotga to'liq o'tish uchun siyosatlar kuchliroq bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Buning uchun majburiy ekologik dizayn standartlari, butun qiymat zanjiri bo'ylab hamkorlik, kuchli iqtisodiy rag'batlar va infratuzilma investitsiyalari amalga oshirilishi lozim. Aks holda, sirkulyar iqtisodiyot faqat "yamoq" bo'lib qoladi va real o'zgarish bo'lmaydi. Shuning uchun bu tadqiqotlar biznes va hukumatlarga siyosatni takomillashtirishda asos bo'lib xizmat qiladi — faqat shu yo'l bilan chiziqli modeldan voz kechib, barqaror va resurs tejamkor bo'lgan, sirkulyar iqtisodiyotni barpo qilish va rivojlantirish mumkin bo'ladi. Adabiyotlarda kombinatsiyalashgan mexanizmga turli xil yondashuvlar mavjud bo'lib, ulardan, integratsion yondashuvda barcha instrumentlar yagona tizimda ishlashi va sinergetik samara yuzaga kelishi, bosqichma-bosqich yondashuvda avval tartibga solish, keyin iqtisodiy rag'batlar; bozor asosidagi yondashuvda esa asosiy rol narx mexanizmiga beriladi va bunga karbon bozori namuna sifatida ko'rsatiladi. Shuning uchun davlat boshqaruvi yondashuvida davlat asosiy drayver, siyosat ustuvor ahamiyatga ega hisoblanadi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Sirkulyar iqtisodiyotda muammolar murakkabligining asosiy sabablari bu bozor nosozliklari tufayli ekologik zarar narxga kirmasligi va ishlab chiqaruvchi javobgar bo'lmasligi, xulq-atvor muammolari sifatida iste'molchilar ekologik mahsulot tanlamasligi, texnologik to'siqlar sifatida qayta ishlash qiymat bo'lishi kabilar hisoblanadi. Shu bois, bitta instrument bu muammolarning barchasini hal qila olmaydi. Policy mix asosan uch blokdan iborat tizim sifatida ishlaydi. Ulardan, birinchisi, regulyator majburiy choralar sifatida standartlar, taqiqlar, EPR (ishlab chiqaruvchi mas'uliyatini) talab qilsa, ikkinchisi, iqtisodiy manfaatlar shaklida soliqlar, subsidiyalar, grantlar rag'batlantiradi va nihoyat, uchinchisi, ijtimoiy-institutsional vositalar sifatida axborot kampaniyalari, yashil xaridlar, innovatsiya dasturlari kishilarning xulqini o'zgartiradi. Eng muhim jihat bu instrumentlar alohida emas, balki, ular bir-biri bilan o'zaro bog'liq holda ishlaydi. Sinergiya samarasining eng asosiy mohiyati bu - Policy mixning yuragi bo'lishidir. Masalan, chiqindi uchun soliq orqali jazolanadi, qayta ishlash subsidiyasi bilan rag'batlantiriladi. Natijada kompaniya chiqindini kamaytiradi va qayta ishlashga o'tadi. Agar faqat soliq bo'lsa, biznes zarar ko'radi, yoki, agar faqat subsidiya bo'lsa, motivatsiya past bo'ladi. Shuning uchun ularning ikkalasi birgalikda bo'lsa, maksimal natijaga erishiladi. Sirkulyar iqtisodiyot resurslarni tejashni, chiqindini kamaytirishni va qayta ishlashni talab qiladi. Buni amalga oshirish uchun policy mix - asosiy boshqaruv mexanizmini joriy etishi kerak. "Policy mix" (kombinatsiyalashgan paketlar) mexanizmi — bu sirkulyar iqtisodiyotda yoki umuman iqtisodiy siyosatda bir nechta turli instrumentlarning yagona maqsad sari o'zaro uyg'unlashgan holda qo'llanilishini bildiradi. Agar, davlat instrument sifatida faqat bitta vosita ishlatsa (masalan, faqat soliq yoki faqat qonun), bu yondashuv tarzi yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun policy mix = bir nechta vositalar va ularning uyg'un ishlashini talab etadi. Ya'ni, qonunlar (majburiy choralar), iqtisodiy rag'batlar (soliq, subsidiya), axborot va institutlarning barchasi birgalikda ishlaydi.

Real hayotiy misol sifatida plastik butilkalarni ko'rish mumkin. Bitta instrument sifatida faqat taqiq joriy etilsa, noqonuniy ishlab chiqarish paydo bo'ladi. Lekin policy mix sifatida plastik solig'i, qayta ishlash subsidiyasi, depozit tizimi, axborot kampaniyasi joriy etilishi natijasida iste'mol kamayadi, qayta ishlash oshadi va tizim ishlaydi. Policy mixning o'ziga xos jihatlari – bu, kompleks sifatida bir nechta vosita ishlaydi, moslashuvchanlik bo'yicha mamlakatga qarab o'zgaradi, tizimli tarzda butun iqtisodiyotga ta'sir qiladi, uyg'unlik (coherence) sifatida instrumentlar bir-biriga zid bo'lmasligi kerak. Demak, Policy mix (kombinatsiyalashgan paketlar) mexanizmi — bu turli siyosiy, iqtisodiy va institutsional instrumentlarning o'zaro uyg'unlashgan holda qo'llanilishi orqali murakkab iqtisodiy va ekologik muammolarni samarali hal qilishga qaratilgan tizimli boshqaruv yondashuvidir. Chunki, sirkulyar iqtisodiyot — bu, resurslarni maksimal darajada tejash, chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash va qayta foydalanish asosida qurilgan iqtisodiy model bo'lib, u o'ziga xos prinsiplarga asoslanadi. Xususan, ular, reduce (kamaytirish), reuse (qayta foydalanish) va recycle (qayta ishlash) kabi tamoyillardan iborat. Kombinatsiyalashgan paketlar mexanizmi mohiyati – bu o'ziga xos munosabatlar tizimini anglatadi. Bunda, bir nechta iqtisodiy va institutsional instrumentlar yagona tizimda qo'llaniladi. Ular, tarkibiy elementlar sifatida fiskal siyosat (soliq, subsidiyalar), institutsional mexanizmlar (EPR, standartlar), bozor (kvotalar, savdo tizimlari) instrumentlari, moliyaviy (kreditlar, grantlar) mexanizmlardan tashkil topgan.

Kombinatsiyalashgan mexanizm o'ziga xos nazariyalarga asoslanadi. Xususan, tashqi samaralar nazariyasi sifatida ekologik zarar — bu manfiy tashqi samara va uni ichkilashtirishga (Pigou solig'iga), institutsional iqtisodiyotda qonunlar va qoidalar muhim rol o'ynashiga, EPR tizimi asosiy instrument hisoblanishiga, barqaror rivojlanish nazariyasi bo'yicha iqtisodiy o'sish + ekologiya + ijtimoiy barqarorlik ta'minlanishiga, tizimli yondashuvlar orqali iqtisodiy tizimlar o'zaro bog'liqligi va kompleks mexanizmlar zarurligiga tayanadi.

Milliy bozorda kombinatsiyalashgan paketlar mexanizmi (policy packages) — sirkulyar iqtisodiyot doirasida bir nechta turli siyosiy vositalarni (regulyator, iqtisodiy, texnologik, ta'limiy va institutsional) birlashtirgan yaxlit “paket” (bundle) hisoblanadi. Bu mexanizm bitta alohida chora emas, balki birgalikda sinergetik ta'sir ko'rsatuvchi vositalar majmui sifatida ishlaydi. Uning asosiy komponentlari:

- EPR (Extended Producer Responsibility—Ishlab chiqaruvchining kengaytirilgan javobgarligi);
- Ekodizayn standartlari + subsidiyalar va soliq imtiyozlari;
- Chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasi + raqamli kuzatuv tizimlari (masalan, material pasportlari yoki blockchain);
- Yashil davlat xaridlari + ta'lim va xabardorlik dasturlari kabilar.

Ushbu paket chiziqli modeldan (“olish – ishlab chiqarish – ishlatish – tashlash”) siklli modelga (“qayta ishlatish – ta'mirlash – qayta ishlash – qayta foydalanish”) o'tishni ta'minlaydi. Natijada resurs samaradorligi oshadi, chiqindilar kamayadi va yangi iqtisodiy qiymat yaratiladi.

Kombinatsiyalashgan paketlar mexanizmining o'ziga xos jihatlari:

Sinergiya samarasi —bu, bir necha vositalar birgalikda ishlatilganda natija alohida qo'llanilgandagidan ancha yuqori bo'ladi ( $1+1=3$  tamoyili). Masalan, EPR qonuni ekodizaynni rag'batlantirsa, subsidiyalar esa texnologik o'zgarishlarni tezlashtiradi.

Tizimli yondashuv — faqat chiqindilar bilan cheklanmaydi, balki butun mahsulot hayot sikli (dizayndan qayta ishlashgacha bo'lgan jarayon) qamrab olinadi.

Moslashuvchanlik — rivojlanayotgan mamlakatlarda norasmiy sektor va qishloq xo'jaligi chiqindilarini hisobga olgan holda moslashtirish mumkin.

Iqtisodiy va ekologik “ikki baravar foyda” (double dividend) — chiqindilar kamayib, yangi ish o'rinlari va eksport imkoniyatlari paydo bo'ladi.

O'zbekistonda bu mexanizm 2025-yil “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili” hamda chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi tashkil etilishi

bilan dolzarbligi ortgan. Bundan tashqari, “O‘zbekiston–2030” strategiyasi va yashil iqtisodiyotga o‘tish dasturlari ham bu yo‘nalishni qo‘llab-quvvatlaydi.

### Xulosa va takliflar.

Sirkulyar iqtisodiyot samaradorligi alohida instrumentlarga emas, balki ularning kombinatsiyalashgan paketiga bog‘liq bo‘lib, Policy mix – bu, iqtisodiy instrumentlar, huquqiy mexanizmlar, institutsional asoslar va innovatsion yondashuvlar uyg‘unlashgan tizimdir. Unda eng muhim muammo siyosatlar o‘rtasida uyg‘unlik (coherence) yetishmasligi hisoblanadi. Shuning uchun sirkulyar iqtisodiyotga o‘tish faqat kompleks yondashuv orqali amalga oshirilganda samarali bo‘lishi mumkin. Shu bois, bu borada bir qator taklif va tavsiyalar berish mumkin. Xususan, siyosiy darajada yagona circular economy policy framework (sirkulyar iqtisodiyot siyosati doirasi)ni ishlab chiqish, tarmoqlararo koordinatsiyani kuchaytirish va “Policy coherence (Siyosiy izchillik)” mexanizmini joriy etish; Iqtisodiy instrumentlar sifatida ekologik soliqlar (green tax), subsidiyalar va grantlar, resurs samaradorligi uchun rag‘batlar tashkil etish; Biznes sektor uchun sirkulyar biznes modellarini qo‘llab-quvvatlash, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish; ilmiy va ta‘lim sohasida sirkulyar iqtisodiyot borasida o‘quv dasturlarini joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish; amaliy strategik taklif sifatida mamlakatda sirkulyar iqtisodiyot uchun kombinatsiyalashgan modelni ishlab chiqish va davlat + biznes + ilmiy sektor o‘rtasida integratsiyani ta‘minlash; hududiy yondashuvlarni sektorlar kesimida (energetika, qishloq xo‘jaligi, sanoat) ommalashtirish kerak. Mazkur tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, sirkulyar iqtisodiyot — bu faqat ekologik model emas, balki murakkab institutsional-iqtisodiy tizim bo‘lib, uning samaradorligi kombinatsiyalashgan siyosiy paketlar mexanizmi orqali ta‘minlanishi mumkin.

### Adabiyotlar / Jumepamyra / Reference:

Asian Development Bank. (2021). *Green economy transition in Asia and the Pacific*.

Geissdoerfer, M., Savaget, P., Bocken, N. M. P., & Hultink, E. J. (2017). *The circular economy – A new sustainability paradigm? Journal of Cleaner Production*, 143, 757–768. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2016.12.048>

Kirchherr, J., Reike, D., & Hekkert, M. (2017). *Conceptualizing the circular economy: An analysis of 114 definitions. Journal of Cleaner Production*, 150, 221–232.

Leonidas Milios. (2018). *Advancing to a circular economy: Three essential ingredients for a comprehensive policy mix. Sustainability Science*, 13(3), 861–878. <https://doi.org/10.1007/s11625-017-0502-9>

Martin Geissdoerfer, Paulo Savaget va Nancy M.P. Bocken. (2016) [https://research.monash.edu/en/publications/the-circular-economy-a-new-sustainability-paradigm/?utm\\_source=chatgpt.com](https://research.monash.edu/en/publications/the-circular-economy-a-new-sustainability-paradigm/?utm_source=chatgpt.com) *The Circular Economy – a new sustainability paradigm? Journal of Cleaner Production*, 143, 757–768. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2016.12.048>

Meta Thurid Lotz, Robin Barkhausen, Andrea Herbst, Matthias Pfaff, Antoine Durand, Matthias Rehfeldt (2022). *Potentials and prerequisites on the way to a circular economy: A value chain perspective on batteries and buildings. Fraunhofer Institute for Systems and Innovation Research. Sustainability*. 14(2), 956. <https://doi.org/10.3390/su14020956>.

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi. (2023). *Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha hisobot*.

OECD. (2019). *Fiscal policies for better environment*. <https://doi.org/10.1787/689afed1-en>

OECD. (2021). *Policy instruments for the environment*.

- Patrizia Ghisellini, Catia Cialani va Sergio Ulgiati. (2016). A review on circular economy: The expected transition to a balanced interplay of environmental and economic systems. Journal of Cleaner Production, 114, 11–32. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2015.09.007>*
- Rizos, V., Tuokko, K., Behrens, A., Kafyeke, T., Hirschnitz-Garbers, M., Ioannou, A., & Zambianchi, V. (2016). The Circular Economy: Barriers and Opportunities for SMEs. CEPS Working Document. <https://doi.org/10.13140/RG.2.2.14077.03042>*
- UNEP. (2019). Global resources outlook.*
- United Nations. (2022). The Sustainable Development Goals Report.*
- World Bank. (2020). Resource efficiency and circular economy in developing countries.*
- Yong Geng, Joseph Sarkis, Sergio Ulgiati, Pan Zhang. (2013) “Measuring China’s Circular Economy”, <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/23539584/>.*